



# PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIAJ JURNALI

The journal "Pedagog" covers the sphere of spiritual and educational thinking of a person, the socio-political life of a person, institutions of civil society, global problems, problems of education, new technologies produced today, reforming the education system and publishes scientific articles on open scientific popular analysis.

The journal is intended for students, masters, professional scientists and researchers, university professors. The publication publishes articles of a problematic and scientific-practical nature.



Volume 7, Issue 6



Exact  
Natural  
Medical  
Technical  
Economics  
Philological  
Pedagogical  
Social sciences  
and humanities





**«BEST PUBLICATION»**

*Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©*

**“PEDAGOG”  
RESPUBLIKA ILMIY JURNALI**

**MATERIALLARI TO‘PLAMI**

**15-IYUN, 2024-YIL**

**7-TOM 6-SON**

**O‘ZBEKISTON**

**2024**

Ushbu to‘plamda “Pedagog” respublika ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o‘rin olgan. Mazkur jurnalda zamonaviy ta‘lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta‘lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta‘limni rivojlantirishda yo‘nalishlar bo‘yicha kreativ g‘oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta‘lim maktab o‘qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

**Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma‘lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

TAHRIRIYAT

**Bosh muharrir:**

Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Mas'ul muharrir:**

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o‘g‘li

*Farg‘ona davlat universiteti*

**Texnik xodim:**

Sultonov Sardorbek No‘monjon o‘g‘li

*Farg‘ona davlat universiteti*

TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

**Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna**

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi**

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Sabirova Gulnoza Sadikovna**

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Saidov Ixtiyor Muzropovich**

*Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i*

**Mamatova Nodira Muxtarovna**

*Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)*

**Rasulova Vasila Batirovna**

*Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent*

**Nikadambayeva Hilola Batirovna**

*Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,*

*Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

**Pirimov Akram Pirimovich**

*Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent*

**Shodiyev Furqat Davranovich**

*Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari*

*nomzodi, Dotsent*

**Qurbonova Muqaddas Omonovna**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Baltayeva Ikkal Tadjibayevna**

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*

**Sayfullayeva Ra‘noxon Raupovna**

*O‘zbekiston milliy universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.*

**Popova Tatyana Igorevna**

*SanktPeterburg davlat universiteti. Rossiya. Doctor filologicheskix nauk, professor.*

**Berdaliev Abduvali**

*Tojikiston. Xo`jand davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.*

**Manzuraxon Ernazarova**

*Navoi davlat pedagogika instituti. Filologiya fanlari doktori, professor.*

**Uluqov Nosirlon Muxammadalievich**

*Namangan davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.*

**Jumanazarova Guljahon**

*Filologiya fanlari doktori. Jizzax davlat universiteti.*

**A.A.Qosimov**

*Farg`ona davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.*

**Jo`rayev Habibullo Abdusalomovich**

*Filologiya fanlari doktori. Farg`ona davlat universiteti.*

**Fayzimatov Shuxratjon No`monovich**

*Farg`ona politexnika instituti. Texnika fanlari doktori.*

**Hoshimov G`anijon Mirzaaxmadovich**

*Andijon davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.*

**Hulkar Hamroyeva**

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. O`zbekiston respublikasi yozuvchilar uyushmasi a`zosi, jurnalist.*

**O`rinboyev No`monjon O`rmonovich**

*falsafa fanlari nomzodi, dotsent. XTXMOIO`*

**Qurbonova Muqaddas Omonovna**

*Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori. Farg`ona davlat universiteti.*

**Qunduzxon Atabayevna**

*Filologiya fanlari doktori, professor. O`zbekiston. Jahon tillari universiteti.*

**Hojaliyev Ismoiljon Tojiboyevich**

*Farg`ona davlat universiteti filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Erofeeva Inna Nikolaevna**

*Kandidat pedagogicheskix nauk, dotsent. Sankt Peterburg davlat universiteti. Rossiya.*

**Toshtemirova Zamira Sotvoldiyevna**

*pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Farg`ona davlat universiteti.*

**G.O.Abdugafurovich**

*Filologiya fanlari nomzodi. Farg`ona davlat universiteti.*

**Xudayarov Oybek Odilovich**

*Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti*

**Muxitdinova Muniraxon**

*Pedagogika fanlari fanlari doktori, (PhD)*

**Rabbonayeva Dildora Tolipovna**

*Samarqand viloyati Pedagogika markazi katta o`qituvchisi. Xalq ta'limi a'lochisi, Xalq ta'limi fidoyisi ko'krak nishonlari sohibasi.*

<b>MUNDARIJA:</b>		
<b>1.</b>	<b>Mahmudova Nigora Hikmatovna</b> <i>MODERN FOUNDATIONS OF THE PEDAGOGICAL APPROACH.</i>	<b>13</b>
<b>2.</b>	<b>Dilshoda Xaqqulova</b> <i>ABDURAHMON GO‘ZAL – YASSAVIYSHUNOS</i>	<b>20</b>
<b>3.</b>	<b>Shikorov Tolib Tavakalovich</b> <i>MUAMMOLI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI</i>	<b>28</b>
<b>4.</b>	<b>Saidova Mahbuba Ayubovna</b> <i>GYMNASTICS IN TRAINING PHYSICAL PREPARATION AND MOTOR FEATURES</i>	<b>34</b>
<b>5.</b>	<b>Sayfiyev Hikmatullo Xayrulloevich</b> <i>TECHNIQUE OF TEACHING SPORTS GYMNASTICS.</i>	<b>43</b>
<b>6.</b>	<b>Yarasheva Dilnoza</b> <i>MASHG‘ULOT JARAYONIDA GANDBOLCHINING FUNKSIONAL HOLATINI O‘RGANISH.</i>	<b>51</b>
<b>7.</b>	<b>Manzitov Baxtiyor Tolibovich</b> <i>LIDERLIK HAQIDAGI ILMIY FIKRLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATI</i>	<b>59</b>
<b>8.</b>	<b>Quvvatov Behruz Ulug‘bek o‘g‘li</b> <i>INFORMATIKA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH</i>	<b>64</b>
<b>9.</b>	<b>Murodov Oybek To‘raqulovich</b> <i>OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH</i>	<b>75</b>
<b>10.</b>	<b>Д.Ф. Райимов</b> <i>АППРОКСИМАЦИЯ КРИВЫХ ЛИНИЙ КУБИЧЕСКИМИ СПЛАЙНАМИ</i>	<b>87</b>
<b>11.</b>	<b>Latipova Shahnoza Salim qizi</b> <i>ANIQMAS INTEGRALNI HISOBLASH USULLARI. KVADRAT UCHHADLI AYRIM INTEGRALLARNI HISOBLASH.</i>	<b>98</b>
<b>12.</b>	<b>Sharipova Madina Po‘latovna</b> <i>LEONT‘EVNING TARMOQLARARO BALANS MODELII.</i>	<b>108</b>
<b>13.</b>	<b>Jo‘raqulov Sanjar Zafarjon o‘g‘li</b> <i>MOLIYA VA ASTRAFIZIKA ORASIDAGI ALOQALARGA</i>	<b>117</b>

	<i>HOZIRDA ZAMON QARASHLARI</i>	
14.	<b>Muxtaram Boboqulova Xamroyevna</b> <i>RADIATION NURLARNING INSON ORGANIZMIGA TA`SIRI.</i>	126
15.	<b>Axmedova Zulxumor Ikromovna</b> <i>TURLI TA`LIM TIZIMLARIDA TALABA BILIMINI BAHOLASH</i>	138
16.	<b>Sharopova Muxayyo Muxtor qizi</b> <i>SIMMETRIK VA OCHIQ KALITLI (NOSIMMETRIK) KRIPTOTIZIMLAR</i>	149
17.	<b>Tursunbek Sadriddinovich Jalolov</b> <i>ПОРЯДОК СОЗДАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТЕСТОВЫХ ПРОГРАММ</i>	157
18.	<b>Ikromova Sitora Akbarovna</b> <i>PROCEDURE FOR CREATING PSYCHOLOGICAL TEST PROGRAMS</i>	165
19.	<b>Ашуров Жасур Джураевич</b> <i>РЕШЕНИЕ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ СОВРЕМЕННОГО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ С ПРИМЕНЕНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА</i>	172
20.	<b>Elov Ziyodullo Sattorovich</b> <i>SHAXSDA FOBIYA HOLATI VA UNING DIAGNOSTIKASI</i>	179
21.	<b>Ergashova Umida Erkin Qizi</b> <i>TALABALARNING KASBIY SHAKLLANISHIDA “KOPING STRATEGIYASI”NI RIVOJLANTIRISH</i>	191
22.	<b>Mirsagatov Murod Atxamovich</b> <i>TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT TOVAR NOMENKLATURASINI O`QITISH METODIKASI TO`G`RISIDA</i>	198
23.	<b>Tajimuratov Doniyor Baxromovich</b> <i>XORAZMNING ANTIK DAVRIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI</i>	207
24.	<b>Mingboyeva Yulduz Boboxolovna</b> <i>PROFESSIONAL TA`LIM MUASSASALARI O`QUVCHILARIDA IQTISODIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIKA FANINING AHAMIYATI.</i>	212
25.	<b>S.S.Alikulov</b>	216

	<b>Xusayinova Aziza Ulug‘bek qizi</b> <i>TEXNIKA OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA FIZIKANI O‘QITISHDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH</i>	
26.	<b>Бабаджанова Зинаида Анатольевна.</b> <i>«ФЕЛИКС МЕНДЕЛЬСОН. КОНЦЕРТНЫЕ ВАРИАЦИИ ДЛЯ ВИОЛОНЧЕЛИ И ФОРТЕПИАНО»</i>	224
27.	<b>N. Kubeysinova</b> <i>TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNING SHAKLLANISHI MUAMMOSINING XORIJIY ADABIYOTLARDAGI TALQINI</i>	226
28.	<b>To‘rayeva Orzigul Bobomurod qizi</b> <b>Nasirova Shaira Narmuradovna</b> <i>OLIJ TA‘LIM TIZIMIDA TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIMINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI</i>	232
29.	<b>A.B.Xurramov</b> <b>M.J.Safarova</b> <b>D.I.Jo‘raboyeva</b> <i>INTERVALLI TAKRORLASH</i>	235
30.	<b>Tillaboyev Xojimatbek Abdug‘affor o‘g‘li</b> <i>BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI</i>	243
31.	<b>Душаев Акбаржон Жаникулович</b> <i>ДАХЛДОРЛИК ТУЙҒУСИННИНГ ДАРАЖАЛАРИГА ОИД АЙРИМ МУЛОХАЗАЛАР</i>	251
32.	<b>R.Nuriddinov</b> <b>B.Bahodirov</b> <i>YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA NIKOH OLDI OMILLARI MUAMMOSI</i>	255
33.	<b>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</b> <i>RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA RAQAMLI OCHIQ MANBALARDAN FOYDALANISH AMALIYOTI</i>	259
34.	<b>Madraximova Gulnoza Adxamovna</b> <i>FOREIGN LANGUAGE TEACHING TECHNOLOGY IN TECHNICAL DIRECTIONS</i>	267
35.	<b>Jalilov Najmiddin Husanovich</b> <i>TEXNOLOGIYA TA‘LIMI FANINI O‘QITISHDA</i>	269

	<i>ELEKTRON DARSLIKLAR VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI</i>	
36.	<b>Bekmurodova Muyassar Yodgor qizi</b> <b>Salimov Shaxzod</b> <b>Jo'raqulov Fazliddin</b> <i>IMPROVEMENT OF LAND RESOURCES MANAGEMENT MECHANISMS</i>	272
37.	<b>Нам Анжела Львовна</b> <b>Махмудов Абдулазиз</b> <i>СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ СПЕЦИАЛИСТОВ ТРАНСПОРТНЫХ СИСТЕМ</i>	277
38.	<b>Xolmatov Abdulbosid Abdurashid o'g'li</b> <i>XX ASR 50-60-YILLARIDA O'ZBEKISTONDA XALQ TA'LIMI</i>	282
39.	<b>Kamalova Maxliyo Akbarovna</b> <i>MAXSUS FANLARDAN DARSLARNI O'QITISHDA INNOVASION USULLARNING AHAMIYATI.</i>	287
40.	<b>Мухаммадиев Бахтияр Сапарович</b> <b>Камалова Махлиё Акбаровна</b> <i>ПРОЕКТИРОВАНИЯ МЕХАНИЧЕСКИХ ЦЕХОВ В МАШИНОСТРОИТЕЛЬНОМ ПРОИЗВОДСТВЕ.</i>	292
41.	<b>Abduzohidova Dildora Abdunabi qizi</b> <i>"PILLA RAQSINING JOZIBADORLIGI"</i>	298
42.	<b>Xudoyberdiyeva Nilufar Bozorovna</b> <b>Normatova Feruza Shavkatovna</b> <i>МАКТАВ YOSHIDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA'LIM BERISH ISTIQBOLLARI, MUAMMOLAR VA YECHIMLARI</i>	301
43.	<b>Sh. B. Oydinov</b> <b>O.Sh. Vaxronova</b> <i>O'TMISH RANGTASVIR SAN'ATI ASARLARI-ESTETIK TARBIYA OMILI.</i>	305
44.	<b>Ё.М. Алтмишева</b> <i>РОЛЬ ДЖАДИДОВ В РАЗВИТИИ ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ЛЕКСИКОГРАФИИ</i>	312
45.	<b>Abdumajidova Malika</b> <i>ADVANTAGES OF CONTROL THROUGH FUZZY LOGIC</i>	316

46.	<b>Nabijanov Dilshodbek</b> <i>ADAPTIVE CONTROL SYSTEMS</i>	320
47.	<b>To'xtasinov Davronbek Xoshimjon o'g'li</b> <b>Madaliyev Hushnid Baxromjon o'g'li</b> <i>TEMIR YO'L VA AVTOMABIL YO'LLARI KO'PRIKLARI SIFATIGA TA'SIR QILADIGAN OMILLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI</i>	324
48.	<b>Nilufar Parpiyeva Xabibulla qizi</b> <b>Abdulahadov Abduhalil</b> <i>AUTOMATIC CONTROL SYSTEM OF PRESSING EQUIPMENT PARAMETERS.</i>	328
49.	<b>Джурраев Шерзод Собиржанович</b> <b>Аскарров Азизбек Анварович</b> <i>ОПТИМАЛЬНОЕ РЕШЕНИЕ: ЗАТОПЛЕНИЕ УГЛЕКИСЛЫМ ГАЗОМ (СО<sub>2</sub>) ДЛЯ ТУШЕНИЯ ПОЖАРОВ В ХЛОПКЕ</i>	338
50.	<b>Djurayev Sherzod Sobirjanovich</b> <b>To'xtasinov Davronbek Xoshimjon o'g'li</b> <i>ELEKTRODVIGATELNING PAXTA OQIMI TUFAYLI TOVUSH INTENSIVLIGI VA TIQINLAR HOSIL BO'LISHI</i>	342
51.	<b>Qirg'izov I.M.</b> <i>JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALAR.</i>	346
52.	<b>Djumabaeva Salomat Komiljonovna</b> <i>IJTIMOIIY GEOGRAFIYAGA DOIR KERAKLI STATISTIK MA'LUMOTLARNI TO'PLASH USULLARI</i>	350
53.	<b>D.A.Sholdarov</b> <b>G.O.Navruzova</b> <i>ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH</i>	355
54.	<b>Ulug'bek Malikov</b> <i>"EXPLORING GASTRONOMIC PHRASEOLOGISMS: A COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK IDIOMATIC EXPRESSIONS"</i>	359
55.	<b>Maxmudova Sohiba Ilyosovna</b> <b>Ergasheva Madina Bahridin qizi</b> <i>O'RTA VA UZOQ MASOFALARGA</i>	369

**IJTIMOYIY GEOGRAFIYAGA DOIR KERAKLI STATISTIK MA'LUMOTLARNI  
TO'PLASH USULLARI**

**Djumabaeva Salomat Komiljonovna**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti,*

*Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi*

*104 uy. Tel.: +99870 716-68-05*

*Email: S.djumabayeva@cspi.uz*

*Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya kafedrası dotsent v.b.*

**Annotatsiya:** *Bu jarayonda statistik malumotlatni talabalar o'z hududi atrofida iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni suhbat o'tkazish orqali olingan hamda demografik xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, ularni tahlil qilgandan so'ng, ma'lum bir hududga xos xususiyatlarni aniqlashlari va ularni taqqoslanadi.*

**Аннотация:** *В этом процессе студенты статистической информации собирают и обрабатывают данные, полученные путем опроса экономической и социальной ситуации вокруг своей местности и имеют демографическую характеристику, после их анализа определяют характеристики, характерные для определенной территории, и сравнивают их.*

**Abstract:** *In this process, statistical information is collected and processed by the students of the economic and social situation around their area and demographic data, after analyzing them, they identify the specific characteristics of a certain area and compare them.*

**Kalit so'zlar:** *Iqtisodiy geografiya, sotsial geografiya, siyosiy va rekreatsiya geografiyasi, inson geografiyasi, evolyutsion jarayon, differentsiatsiya va integratsiya, statistik ma'lumotlar, qiyosiy tahlil.*

**Ключевые слова:** *Экономическая география, социальная география, политическая и рекреационная география, география человека, эволюционный процесс, дифференциация и интеграция, статистические данные, сравнительный анализ.*

**Key words:** *Economic geography, social geography, political and recreational geography, human geography, evolutionary process, differentiation and integration, statistical data, comparative analysis.*

Mazkur jarayonda talabalar qaysi ko'rsatkichlar ma'lum bir hudud salohiyati va imkoniyatlari aks ettirilayotganini va qanday maqsadlarda qo'llash mumkinligini aniq tushunishlari lozim. Talabaning ko'rsatkichni mohiyatini yaxshi bilishi va o'quv vaziyatida uni qo'llash maqsadini ongli ravishda tushunishi uning oldiga qo'yilgan vazifani muvaffaqiyatli ishlay olishiga yordam berishi mumkin. ma'lumotlardan to'plash,

Fanga doir kerakli statistik ma'lumotlarni darslik yoki boshqa ma'lumotlardan to'plash, talabalar tomonidan mashg'ulotni bajarishga tayyorlangan holda amalga oshiriladi. Tayyorlangan statistik ko'rsatkichlar mashg'ulotning metodologik qismini tasdiqlash, ularga tegishli voqea yoki hodisani tasvirlash, ular bilan keyingi ishlarni amalga oshirish hamda ta'lim faoliyatining boshqa usullaridan foydalanish uchun qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash lozimki, oliy ta'limda tadqiqot jarayonini yanada samarali qilish uchun talabalarga o'z hududi (viloyati, respublikasi) yoki aholi punkti geografiyasini o'rganishga doir sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha topshiriq berish mumkin. Ushbu vaziyatda talabalar o'z hududi atrofidagi iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni suhbat o'tkazish orqali olingan hamda demografik xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, ularni tahlil qilgandan so'ng, ma'lum bir hududga xos xususiyatlarni aniqlashlari va ularni taqqoslashlari lozim. Tadqiqot maqsadi va predmetiga qarab biror hududga oid umumiy yoki qismlari bo'yicha topshiriq beriladi. Bunday topshiriqlar ijodiy xarakterga ega bo'lib, aksariyat hollarda talabalar tomonidan katta qiziqish bilan bajariladi va o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

Bunday turdagi topshiriqlarni, A.I.Alekseev va V.N.Nikolinaning Rossiya geografiyasi tegishli dasturi va darsligida ko'rishimiz mumkin[1], ular quyidagilar:

talabani hududidagi (viloyat, tuman) iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatni tavsiflovchi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;

mahalliy aholi o'rtasida o'tkazilgan anketa-so'rovnoma tahlili asosida yashash joyining ishlab chiqarish imkoniyatini aniqlash;

hududlararo imtiyozlarni sotsiologik so'rovnoma asosida tizimli o'rganish.

**Qiyoslash** texnikasini shakllantirishda o'quvchilarning aqliy harakatlarini amalga oshirishni osonlashtirish maqsadida ularga turli ko'rsatmalar va eslatmalardan foydalanish imkoniyati beriladi. V.A.Shchenev tomonidan talabalarga geografiyani o'rganishda taqqoslash texnikasini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan "Qanday qilib to'g'ri solishtirish kerak" deb nomlangan eslatmadan foydalanib, uni qo'llashning uslubiy shartlarini aniqlaymiz[2].

**Talabalarni aholining statistik xususiyatlarini solishtirishga o'rgatish.**

Sanoat yoki qishloq xo'jaligi geografiyasini o'rganish jarayonida ularning xususiyatlarini mutloq va nisbiy ma'lumotlar asosida taqqoslash amalga oshiriladi. Mutloq ma'lumotlarni taqqoslash talabalarga o'rganilayotgan ob'ektlarning masshtabini va xususiyatlarini aniqlash va tushunish, vaqt o'tishi bilan o'zgarishini kuzatish imkonini beradi. Shunday qilib, turli yillardagi ishlab chiqarish to'g'risidagi mutlaq ma'lumotlarni taqqoslash bizga mintaqa (viloyat) qishloq xo'jaligi yoki sanoatining o'sishi yoki kamayishini kuzatish imkonini beradi. Buni biz uning tadrijiy o'zgarishiga qarab aniqlaymiz. Mamlakat doirasida esa ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdorini taqqoslash ularning rivojlanishidagi hududiy farqlarni topishga yordam beradi. Nisbiy ma'lumotlarni taqqoslash turli hududiy birliklarda o'rganilayotgan

hodisaning darajalaridagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. Bunday taqqoslashga misol sifatida turli mamlakatlar va mintaqalarda ishlab chiqarish, uning samaradorligi yoki o'sish tezligini ko'rsatishimiz mumkin. Bu yerda ma'lum bir turdagi hududlarni ulardagi rivojlanish darajasiga ko'ra ajratish mumkin.

<sup>1</sup> Алексеев А.И., Николина В.В. Население и хозяйство России: Учеб. для 9 кл. общеобразоват. учреждений. - М.: Просвещение, 1995. - 320 с.

<sup>2</sup> Богоявленский Д.Н., Менчинская Н.А. Психология усвоения знаний в школе. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1959. - 347 с

Hodisalarning xususiyatlarini aniqlash faqat mutlaq yoki nisbiy ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshirilmaydi. N.N.Petrova fikri bo'yicha, nisbiy va mutlaq ko'rsatkichlar o'rtacha qiymat bilan solishtirishni o'rgatishda qiziqarli va samarali bo'ladi[3]. Umuman olganda, ishlab chiqarish jarayonlarini taqqoslash quyidagilarni aniqlashga imkon beradi:

- a) voqea rivojlanishining umumiy tendentsiyasi;
- b) ma'lum bir miqdorlarning qiymati (ko'p yoki oz, katta yoki kichik);
- v) xususiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi (masalan, ishlab chiqarishning notekisligi).

Ayniqsa, aholini o'rganishda taqqoslashning ushbu usuli juda keng qo'llaniladi, chunki uning dinamikasini aniqlashda ma'lum bir davr qiymatining o'rtacha darajasi, hududiy farqlari va ko'rib chiqilayotgan davr ko'rsatkichlari o'rtacha darajasi olinadi. Masalan, aholining tarqalish xususiyatlarini o'rganilayotganda, aholi zichligi bir xil bo'lgan hududlar o'rtasida solishtiriladi. Bu esa har bir joyning o'ziga xos jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Biror hudud aholisini, xususan, demografik vaziyatning xususiyatlarini o'rganayotganda, ko'rib chiqilayotgan davr uchun tug'ilish va o'limning o'rtacha qiymatini aniqlash va ushbu ko'rsatkichlarning dinamikasini o'rtacha ma'lumotlar bilan taqqoslash tavsiya etiladi.

Taqqoslash oliy ta'lim geografiyasining o'ziga xos turi bu mamlakatning ikki viloyati aholisi yoki ishlab chiqarishining qiyosiy tavsifini tuzish bo'lib, unda yuqorida ko'rsatilgan usullar birgalikda qo'llaniladi. Mazkur qiyosiy xususiyatlar umumlashtiruvchi taqqoslash texnikasini shakllantirish metodologiyasining psixologik-pedagogik asoslari E.N.Kabanova Meller asarlarida bayon etilgan[4]. U "ajralish abstraktsiya" usulini yaratdi, asosladi va qo'llash samaradorligini ko'rsatib berdi. Uning asl ma'nosi shundan iboratki, o'rganilayotgan hodisaning muhim xususiyatlarini ajratib olish, umumlashtirish va mavhumlashtirish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib hisoblanadi. Talabalarining fikrlashlari ikki bosqichli

<sup>3</sup> Петрова Н.Н. Методика преподавания географии в дифференцированной школе. - М.: Блик и Ко, 2000. - 336 с.

umumlashtirish orqali yengillashtiriladi. Ushbu jarayonda birinchi eng muhim, keyin esa qolgan belgilar umumlashtiriladi. E.N.Kabanova-Meller fikriga ko'ra, "Talabalar ataylab ob'ektlarning muhim va ahamiyatsiz belgilarini ajratadilar va shu va boshqa

xususiyatlar to'g'risidagi umumlashtirilgan bilimlarga tayangan holda ularni qarama-qarshi qo'yadilar". Shuningdek, u yana bir ta'rifida turli geografik ob'ektlarning o'zgaruvchan xususiyatlari muhim ahamiyatga ega, deya hisoblaydi.

L.M.Pancheshnikova ta'kidlaganidek, "geografiya o'qitishda turli xususiyatlar ustida ishlash ikki xil ma'noga ega[5]: ularni ajratib olish va umumlashtirish, bir tomondan, umumiy tushunchalarni shakllantirish uchun zarur; boshqa tomondan, ular iqtisodiy geografik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va shuning uchun yagona markaziy tushunchalarni o'zlashtirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shunday qilib, biror hudud iqtisodiy geografik xususiyatlarining qiyosiy tavsiflarini amalga oshirishda talabalarning e'tiborini o'xshash, umumiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradigan muhim xususiyatlarga qaratish muhim.

Aholining qiyosiy tavsifi statistik materiallarni tahlil qilish asosida demotnik hodisalar va nisbatlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlardagi o'xshashlik va farqlarni ajratib ko'rsatish orqali beriladi. Bizga noma'lum biror hodisani o'rganishda avval ularni qismlarga ajratish so'ngra umumlashtirish lozim. Bunda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga doir statistik materiallarni qiyosiy tahlil qilish, ulardagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsatib bera olish asosiy hisoblanadi.

Umuman olganda, iqtisodiy va ijtimoiy geografik qiyosiy tavsiflarini qabul qilish o'quvchilarning statistik ma'lumotlar asosida amalga oshiriladigan quyidagi aqliy harakatlarini o'z ichiga oladi:

- 1) eng zarur xususiyatlarni ajratib olish va umumlashtirish;
- 2) farqlanuvchi xususiyatlarni ajratib olish va umumlashtirish;
- 3) muhim o'zgaruvchan xususiyatlarni tizimlashtirish va qarama-qarshilikni o'z ichiga olgan umumiy xulosa.

<sup>4</sup> Кабанова-Меллер Е.Н. Психология формирования знаний и навыков у школьников. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1962. - 376 с.

<sup>5</sup> Панчешникова Л.М. Основы методики обучения экономической географии зарубежных стран. - М.: Педагогика, 1975. - 200 с.

#### **ADABIYOLAR RO'YXATI**

1. Alekseev A.I., Nikolina V.V. Naselenie i xozyaystvo Rossii: Ucheb. dlya 9 kl. obshchobrazovat. uchrejdeniy. - M.: Prosveshchenie, 1995. - 320 s.

2. Bogoyavlenskiy D.N., Menchinskaya N.A. Psixologiya usvoeniya znaniy v shkole. - M.: Izd-vo APN RSFSR, 1959. - 347 s.

3. Petrova N.N. Metodika prepodavaniya geografii v differentsirovannoy shkole. - M.: Blik i Ko, 2000. - 336 s.

4. Kabanova-Meller Ye.N. Psixologiya formirovaniya znaniy i navykov u shkolnikov. - M.: Izd-vo APN RSFSR, 1962. - 376 s.

5. Pancheshnikova L.M. Основы методики обучения экономической географии зарубежных стран. - М.: Педагогика, 1975. - 200 с.
6. Тожиева З.Н. Аҳоли географияси. Т., 2010.
7. Психология формирования понятий и умственных действий. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1966. - 227 с.
8. Петрова Н.Н. Методика преподавания географии в дифференцированной школе. - М.: Блик и Ко, 2000. - 336 с.

ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATI  
ORGANLARI FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH*Phd., prof. D.A.Sholdarov**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti***G.O.Navruzova***Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti***Kirish.**

Davlat moliyaviy nazorati - bu davlat byudjeti tizimini tashkil etish va undan foydalanishning qonuniyligi, asosiligi, maqsadga muvofiqligi, oqilonaligi va optimal samaradorligi, huquqbuzarliklar va moliyaviy resurslardan noto'g'ri foydalanishni aniqlash va oldini olish, moliyaviy axborotning shaffofligini ta'minlash. Davlat moliyaviy nazorati tushunchasi yagona qonunchilik ta'rifiga ega bo'lmagani uchun u olimlar o'rtasida turli fikrlar va mulohazalarni keltirib chiqaradi va muqarrar ravishda ular o'rtasida kelishmovchiliklarga sabab bo'ladi. Eng muhimi, kontsepsiyani amalda qo'llashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Binobarin, davlat moliyaviy nazoratini yanada aniqroq tushunish va bir xilda amalga oshirish uchun umumiy qabul qilingan yagona ta'rifni olish va uni davlat darajasidagi normativ-huquqiy hujjatda mustahkamlash zarur. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari moddalarining asosiligi va oqilonaligini baholash, davlat byudjeti hisobidan qoplanadigan yoki byudjetni shakllantirish va ijro etishga ta'sir etuvchi xarajatlarni nazarda tutuvchi davlat qonunlari, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarini moliyaviy ekspertizadan o'tkazish vadavlat moliyaviy nazoratining barcha ilmiy ta'riflari o'zining ijobiy tomonlariga ega. Ulardan ba'zilari davlat moliyaviy nazoratining barcha mumkin bo'lgan elementlarining ancha tor doirasini o'z ichiga oladi, ba'zilari esa kengroq va ularning to'liq ro'yxatini o'z ichiga oladi.

**Adabiyotlat sharhi.** Yu. M.Voronin, moliyaviy nazoratni faqat qonuniylikni belgilash jarayoni sifatida emas, balki boshqaruv obyektining samaradorligi va natijadorligini baholash jarayoni sifatida ham ko'rishadi<sup>26</sup>.

Xuddi shunday, "davlat moliyaviy nazorati" (DMN) tushunchasi boshqaruvning nazorat funksiyasi yoki moliya nazorat funksiyasi sifatida qaraladi. Shunday qilib, individual mutaxassislar to'g'ridan-to'g'ri moliya nazorat funksiyasi bilan DMN bog'laydi.<sup>27</sup> Haqiqatan ham, DMN yalpi ichki mahsulotning taqsimlanishini, tegishli mablag'lar bo'yicha milliy daromadni nazorat qilishni va ularni maqsadga yo'naltirishni o'z ichiga olgan moliyaviy nazorat funksiyasidir.

<sup>26</sup>Воронин Ю. М. Государственный финансовый контроль. М.: Финансовый контроль, 2005

<sup>27</sup>Рябухин С. Н. Аудит эффективности использования государственных ресурсов: монография. М.: Наука, 2004